Azamova Layloxon Shokirjon qizi

Qo‘qon davlat universiteti 1-kurs magistranti

layloxonazamova53@gmail.com

XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARIDA MILLIY O‘ZLIK VA MILLIY QIYOFANI AKS ETTIRUVCHI LEKSIK BIRLIKLAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada xalq og‘zaki ijodi namunalarida uchraydigan leksik birliklar lingvistik nuqtayi nazardan tizimli ravishda tahlil etiladi. Unda milliy o‘zlik va milliy qiyofaning xalq tili orqali ifodalanish mexanizmlari ochib berilib, xalqning turmush tarzi, qadriyatlari, urf-odatlari hamda milliy madaniyatini aks ettirishda leksik birliklarning o‘rni ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, maqollar, dostonlar, qo‘shiqlar va ertaklardan olingan daliliy materiallar asosida milliy ruhni ifodalovchi so‘z va iboralar semantik hamda funksional jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar

xalq og‘zaki ijodi, milliy o‘zlik, milliy qiyofa, leksik birlik, doston, maqol, urf-odat, madaniyat, til.

Аннотация

В данной статье лексические единицы, встречающиеся в образцах устного народного творчества, системно анализируются с лингвистической точки зрения. В ней раскрываются механизмы выражения национальной идентичности и национального облика через народный язык, а также научно обосновывается роль лексических единиц в отражении образа жизни народа, его ценностей, обычаев и национальной культуры. Кроме того, на основе фактического материала, извлечённого из пословиц, эпосов, песен и сказок, проводится семантический и функциональный анализ слов и выражений, передающих национальный дух.

Ключевые слова

устное народное творчество, национальная идентичность, национальный облик, лексическая единица, эпос, пословица, обычай, культура, язык.

Abstract

This article provides a systematic linguistic analysis of lexical units found in samples of folklore. It explores the mechanisms through which national identity and national character are expressed through the language of the people, and scientifically elucidates the role of lexical units in reflecting the lifestyle, values, traditions, and cultural heritage of a nation. Furthermore, based on illustrative examples drawn from proverbs, epics, songs, and fairy tales, words and expressions that convey the national spirit are analyzed from both semantic and functional perspectives.

Keywords

folk oral literature, national identity, national image, lexical unity, epic, proverb, tradition, culture, language.

Zamonaviy tilshunoslikda tilga faqat kommunikativ vosita sifatida emas, balki madaniyat, mentalitet va tafakkur mahsuli sifatida yondashish tendensiyasi tobora kuchayib bormoqda. Mazkur yondashuv til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni chuqurroq anglash imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, folklor leksikasini o‘rganish va uni zamonaviy lingvistik tamoyillar asosida tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bunday tadqiqotlar orqali xalqning milliy qiyofasi, uning tarixiy xotirasi, an’anaviy qadriyatlari hamda o‘ziga xos dunyoqarashi yanada aniqroq yoritiladi. Folklor leksikasida mujassam bo‘lgan birliklar milliy o‘zlikni ifodalovchi muhim vosita sifatida xizmat qilib, millatning ma’naviy va madaniy merosini til orqali avloddan-avlodga yetkazadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Bizni madaniyat bog‘lab turadi va u insoniyat taraqqiyotining asoschisi hisoblanadi”[1; 38]. Ushbu fikr til va madaniyatning ajralmas ekanligini, ayniqsa, milliylikni ifodalovchi leksik birliklar orqali bu bog‘liqlik yanada yorqin namoyon bo‘lishini tasdiqlaydi. Shuni hisobga olgan holda folklor leksikasini lingvokulturologik jihatdan o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lib, u milliy o‘zlikni anglash, madaniy merosni saqlash va uni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ilmiy asos vazifasini bajaradi.

Xalq og‘zaki ijodi — bu xalqning hayot tarzi, orzu-umidlari va qadriyatlarining til orqali mujassam ifodasidir. Unda milliy o‘zlik, xalqning ma’naviy qiyofasi va dunyoqarashi o‘z ifodasini topadi. O‘zbek xalqining og‘zaki ijodida qo‘llanilgan leksik birliklar nafaqat estetik, balki tarixiy, ijtimoiy va madaniy ma’noga ham egadir. Bugungi kunda milliy mafkuramizni shakllantirish va rivojlantirishda o‘zbek folklori namunalari munosib o‘ringa egadir. Shuning uchun ham og‘zaki ijodga xalq qadriyatlarining tarkibiy qismi sifatida munosabatda bo‘lish muhim ahamiyat kasb etmoqda [2; 11].

Xalq og‘zaki ijodi namunalari millatning ruhini, uning axloqiy ko‘rinishlarini, ijtimoiy turmush sharoitlarini ma’lum bir leksik birliklar orqali ko‘rsatadi. Mazkur jarayonda leksik birliklar nafaqat nominativ vazifani bajaradi, balki ular orqali xalqning tarixiy xotirasi, qadriyatlar tizimi va dunyoqarashi ham ifodalanadi. Shu jihatdan folklor leksikasi lingvokulturologik va kognitiv yondashuvlar asosida tahlil etilganda, unda milliy tafakkurning o‘ziga xos modellari hamda konseptual tizimi namoyon bo‘ladi.

Til ijtimoiy hodisadir. Til ijtimoiy hodisa bo‘lganidan keyin u o‘zi oid bo‘lgan xalqning hayoti bilan bog‘liq holda taraqqiy qiladi, boyidi, sayqallanadi, imkoniyatlari doirasini kengaytiradi, sayqal topadi[3; 3]. Boshqacha qilib aytganda, til va jamiyat taraqqiyoti tarixi o‘zaro mustahkam bog‘liq va ajralmasdir[4; 5], ammo bugungi kunda xalq og‘zaki ijodi namunalarida milliy o‘zlik, til va jamiyat hamohangligi, uning madaniy ko‘rinishi to‘laqonli o‘rganilgan emas.

Xalq og‘zaki ijodi namunalarida milliy o‘zlik va milliy qiyofani ifodalovchi leksik birliklarni o‘rganish masalasi o‘zbek va jahon tilshunosligida turli yo‘nalishlarda tadqiq etilgan. Mazkur muammo, ayniqsa, folklorshunoslik, lingvokulturologiya hamda kognitiv tilshunoslik doirasida alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek folklorshunosligida xalq og‘zaki ijodining nazariy asoslari, janriy xususiyatlari va badiiy tizimi H. Zarifov, G‘.Karimov, O. Madayev kabi olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Xususan, ushbu tadqiqotlarda folklor asarlarining xalq hayoti, urf-odatlari va milliy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liqligi asoslab berilgan. Bundan tashqari xalq og‘zaki ijodiyotining xalq bilan

birgalikda rivojlangani, xalqning tafakkur darajasi, dunyoqarashi aytib o‘tilgan. Biroq mazkur ishlarda folklor matnlaridagi leksik birliklarning milliy o‘zlikni ifodalashdagi o‘rni maxsus tadqiq obyekti sifatida yetarli darajada yoritilmagan.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan folklor leksikasini o‘rganish masalalari R. Qo‘ng‘urov, S. Ibrohimov, M. Mirzayev kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Shunga qaramay, mazkur tadqiqotlarda milliy o‘zlik va milliy qiyofani ifodalovchi leksik birliklar lingvokulturologik jihatdan kompleks tahlil qilinmagan. Ushbu tadqiqot xalq og‘zaki ijodi namunalarida mlliy o‘zlik va milliy qiyofani aks ettiruvchi leksik birliklarning tahlilini chuqurlashtirish, ularning til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqligini yanada yaxshiroq tushunishga yo‘naltirilgan.

Shuningdek, Har qanday xalqning o‘ziga xos xususiyatlarini anglashda uning folklor merosini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, “Xalqning til boyligi birinchi galda uning folklorida namoyon bo‘ladi. Biror bir xalqning qanday xalqligini bilish uchun uning folklorini o‘rganish zarur. Folklorda xalqning til imkoniyatlari, mushohada tarzi, ijodiy quvvati aks etgan bo‘ladi” [5; 9]**.** M. Murodova “Har biri tilimiz ko‘rkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafakkurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqimizning ko‘p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir” [6; 65] degan xulosaga keladi.

Leksik birliklarning ma'no tahlili. Milliy qiyofani aks ettiruvchi so‘zlar ko‘pincha an'anaviy milliy tushunchalar, rasm-rusumlarni va ijtimoiy jarayonlarni ifodalaydi. Bunday so‘zlar ko'pincha aniq voqelik yoki o‘zbek xalqining ma’lum bir davrdagi madaniy, ijtimoiy tushunchasini ifodalaydi, masalan, “Kechalari sozanda baxshilar soz, do‘mbiralarini chertib, suxandonlar so‘z aytib, karnaychilar karnay chalib, surnaychilar sunray chalib kelganlarning dimog‘ini xushladi”[7; 109] kabi matnlar nafaqat o‘zbek xalqining urf-odatlari va marosimiy hayoti bilan bog‘liq hodisalarni tasvirlaydi, balki xalqning boy madaniy an’analari, estetik qarashlari hamda ijtimoiy muhitini ham aks ettiradi. Ushbu tasvirlarda xalqning ko‘ngilochar va marosimiy yig‘inlarga bo‘lgan munosabati, musiqa va og‘zaki ijodga berilgan yuksak qadriyat yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, bunday matnlar orqali xalqning qadimiy dunyoqarashi, an’anaviy turmush tarzi va ma’naviy qadriyatlari ham bilvosita ifodalanadi.

Sinonimiya va antonimiya. Xalq og‘zaki ijodi namunalarida milliy ifodaviylikni hosil qilgan so'zlar orasida sinonimik qatorlar ham mavjud. Masalan, “Parvoz qilding qaysi manzilxonadan, Balandparvoz bolam qaydin bo‘lasan”[8; 33] yoki “Bu so‘zni eshitib, biylarning juda vaqti xush bo‘lib, “tilaganimiz qabul bo‘ldi”,-deb ko‘ngli to‘lib, mindi bedov otdi, qistab mazgiliga qarab yo‘l tortdi”[9; 16], “Bu so‘zlarni Gajdumbek Ravshan ko‘rdan eshitib, o‘zining ham bola-chaqasi bilan turkmanga borib vatan etgusi, iloji bo‘lsa, shu badbaxt zolimlarning yurtidan qutilib ketgusi…”[7; 29] kabi o‘rinlarda ifodalangan “manzilxona”, “mazgil”, “vatan” birliklari sinonimlikni vujudga keltirib, matn ichida semantik yaqinlik asosida yagona tushunchaviy maydonni shakllantiradi. Biroq bu birliklar mutlaq teng ma’noli emas, balki har biri o‘ziga xos uslubiy va konnotativ bo‘yoqqa ega bo‘lib, milliy o‘zlikni turli qirralarda ifodalashga xizmat qiladi. Jumladan, “manzilxona” ko‘proq maishiy va konkret makonni anglatib, insonning yashash joyi, boshpanasi bilan bog‘liq tasavvurlarni uyg‘otsa, “mazgil” so‘zi xalqona nutqda qo‘llanib, oddiylik, soddalik va turmush tarziga yaqinlikni ifodalaydi. “Vatan” esa mazkur sinonimik qatorda eng yuqori darajadagi umumlashmaga ega bo‘lib, muqaddaslik, tarixiy xotira, milliy g‘urur va identitet tushunchalarini o‘zida mujassam etadi. Shu bilan bir qatorda antonimlik hodisasi ham folklor matnlarida o‘ziga xos shkallarda namoyon bo‘ladi. Xususan, “Mardning qadrin odam bilmas Nomardga bosh qo‘shmaguncha”[7; 100], “Xaq saqlasa balo yo‘q, xaq qarg‘asa davo yo‘q” [10; 164] kabi o‘rinlarda antonimlik hodisasi sodir bo‘lib, qarama-qarshi ma’noli birliklar orqali hayotiy haqiqatlar keskin va ta’sirchan tarzda ochib beriladi**.** Bunday

antonimik juftliklar nafaqat leksik qarama-qarshilikni ifodalaydi, balki xalqning axloqiy qarashlari, ijtimoiy bahosi hamda estetik ideallarini mujassam etadi.

Semantik o'zgarishlar. Semantik transformatsiyalar xalqning tarixiy-madaniy tajribasini til birliklari orqali kodlashga xizmat qilib, milliy o‘zlikning lingvistik ifodasini yuzaga keltiradi. “Oh ursam g‘amxona ko‘nglim jo‘shadi, Alam tortsam bandi bo‘g‘nim bo‘shadi”[10; 228], “Qo‘ymasin hech kimning kulbaxonasi”[10; 229], “Mening cho‘lon oshimga kelgan amaldorlarkim bir hafta-bir haftadan jilovxonamda istiqomat qilib ketsin”, “Andin so‘ng hovlisidan chiqib podshoning davlatxonasiga ketdi”[10; 225] kabi folklor matnlarida xona leksemasi dastlab joy, makon tushunchasini ifodalab kelgan bo‘lsa-da, mazkur birikmalar tarkibida u o‘zining bevosita leksik ma’nosidan chekinib, kengaygan va ko‘chma semantik mazmun kasb etadi. Xususan, “g‘amxona ko‘nglim” birikmasida “xona” inson qalbi, ichki kechinmalar jamlangan ruhiy makon sifatida talqin qilinib, abstraktlashuv va metaforik ko‘chish hodisasini yuzaga keltiradi. Shuningdek, “kulbaxona” birlikida “xona” komponenti oddiy yashash joyini anglatish bilan birga, kamtarin hayot tarzi, ijtimoiy holat kabi qo‘shimcha konnotativ ma’nolarni ifodalaydi. “Jilovxona” misolida esa u muayyan faoliyat bilan bog‘liq maxsus joyni bildirib, ma’no torayishi orqali aniq funksional makonni anglatadi. “Davlatxona”da esa “xona” leksemasi saroy, hokimiyat markazi ma’nosida kelib, ijtimoiy-siyosiy mazmun bilan boyigan kengaytirilgan semantik qatlamni yuzaga keltiradi.

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, milliy qiyofani ifodalovchi leksik birliklar o‘zining madaniy va ijtimoiy vazifalariga ega bo‘lib, xalqning urf-odatlari, qadriyatlari va an'analarini aks ettiradi. Mazkur birliklar til tizimida nafaqat nominativ vosita sifatida, balki millatning tarixiy xotirasi va madaniy merosini saqlovchi muhim lingvokulturologik qatlam sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ular orqali xalqning turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlari, estetik qarashlari hamda ma'naviy olami ifodalanadi.

Milliy o‘ziga xosliklarni ifodalovchi leksik birliklarning umumiy tahlili nafaqat tilshunoslik, balki xalqning madaniyati va tarixini chuqurroq anglashga imkon beradi. Ushbu tahlil natijalarini muhokama qilishda quyidagi jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi:

Birinchidan, milliy qiyofa va milliy o‘zlikni ifodalovchi leksik birliklarning xalqning ijtimoiy-madaniy, milliy tafakkuri, qadriyatlari va dunyoqarashi bevosita bog‘liqligi ularning lug‘atlardagi aks ettirilishida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Bunday so‘zlar odatda bir qator madaniy va tarixiy ma'nolarni o‘zida mujassam etadi.

Ikkinchidan, milliy qiyofani ko‘rsatuvchi so‘zlarning sinonim va antonim qatorlarini aniqlash jarayonida, ularning semantik o‘zgarishlar va ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar bilan uyg‘unligi kuzatiladi. Misol uchun, tadqiqot davomida “manzilxona”, “mazgil”, “vatan” kabi so‘zlarning ma’nosidagi o‘ziga xos farqlar va ularning turli madaniy kontekstlarda ishlatilishi aniqlangan. Bu so‘zlar xalqning ijtimoiy hayotidagi marosim va an’analarga oid ma’nolarni o‘zida mujassam etadi, va ularning sinonimiya tizimi har bir so‘zning o‘ziga xos ma'nosi va o‘rni borligini ko‘rsatadi. Shuningdek, "mard-nomard”, “xudo saqlasa-xudo qarg‘asa” kabi antonimik birliklar xalq tafakkurida mavjud bo‘lgan axloqiy, ijtimoiy va diniy qarama-qarshilik holatlarini yorqin ifodalab beradi.

Uchinchidan, milliylikni ifodalovchi leksik birliklarning zamonaviy til tizimidagi o‘rni ham muhim masala hisoblanadi. Maqolada qayd etilganidek, ayrim so‘zlar o‘zining an'anaviy ma’nosini saqlab qolgan bo‘lsa-da, ularning ba’zilari zamonaviy madaniy va ijtimoiy kontekstda yangi ma’nolarni hosil qilgan. Masalan, “davlatxona” so‘zi tarixiy jihatdan hukmdorlar saroyi, davlat boshqaruvi olib boriladigan maskan ma’nosini anglatgan bo‘lsa, hozirgi davrda ushbu birlik ko‘proq tantanavorlik, rasmiylik yoki hashamat ramzi sifatida qo‘llanilishi kuzatiladi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, milliylikni ifodalovchi leksik birliklar til tizimida muhim lingvokulturologik qatlamni tashkil etadi. Ular orqali xalqning tarixiy xotirasi, urf-odatlari, qadriyatlari va an’anaviy turmush tarzi o‘z ifodasini topadi. Mazkur birliklar nafaqat nominativ vazifani bajaradi, balki jamiyatning ma’naviy-axloqiy me’yorlarini, estetik qarashlarini va milliy dunyoqarashini ham aks ettiradi.

Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra, milliy o‘zlik va milliy qiyofani ifodalovchi leksik birliklar xalqning madaniyati, tarixi va an’analari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ularning tilda saqlanib qolishi va rivojlanishi muhim ijtimoiy hodisadir. Umumiy tahlillar orqali bu birliklarning madaniy-tarixiy jihatlari, ma’nolarining kengayishi va ularning sinonimik va antonimik tizimlari o‘rganildi. Asosiy natijalar quyidagilarni ko‘rsatadi:

1. Madaniy va tarixiy bog‘liqlik: Milliy o‘zlikni va milliy qifoyani ochib beruvchi so‘zlar xalqning milliy merosini saqlab qolishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, ushbu birliklar tarkibida saqlanib qolgan arxaik elementlar millatning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular orqali til taraqqiyotining izchilligi, ma’no o‘zgarishlari va semantik kengayish jarayonlarini kuzatish mumkin.

2. Semantik o‘zgarishlar: Ba’zi so‘zlar vaqt o‘tishi bilan yangi ma’nolarni qabul qilgan, ularning zamonaviy qo‘llanilishi turli madaniy va ijtimoiy kontekstlarga moslashgan. Bu tilning dinamik rivojlanishini va ijtimoiy o‘zgarishlarga moslashuvchanligini ko‘rsatadi.

3. Sinonimlar va antonimlar tizimi: Millatning o‘zligini ko‘rsatish bilan bog‘liq so‘zlar orasida sinonim va antonimlar mavjudligi ularning ishlatilish o‘rniga qarab ma’nolarining nozik farqlarini ochib beradi. Bu tizim orqali xalqning ijtimoiy hayoti va madaniyati, estetik qarashlariga oid turli hodisalar tasvirlangan.

Tahlil qilinadigan leksik birliklarning ko‘p qirraliligi ularning lug‘atlardagi aks ettirilishi va tilda foydalanish qoidalarini yanada chuqur o‘rganishni talab etadi. Shu bois, bunday leksik birliklarni o‘rganish madaniy, tarixiy va lingvistik nuqtai nazardan davom ettirilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot milliy qiyofani ifodalovchi leksik birliklarning til tizimidagi o‘rni, ularning ma’no nozikliklari hamda leksik-semantik xususiyatlarini chuqur tahlil qilishga qaratildi. O‘tkazilgan tahlillar natijasida ushbu birliklar xalqning madaniy merosi, tarixiy an’analari va ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi muhim til vositalari ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari o‘laroq quyidagi tavsiyalarni berib o‘tish mumkin:

1. Milliy qiyofani ifodalovchi leksik birliklarni tizimli ravishda to‘plash, tasniflash va ularning lingvokulturologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish zarur.

2. Ushbu birliklar asosida maxsus izohli va etnolingvistik lug‘atlar yaratish hamda ularni zamonaviy talqinlar bilan boyitish maqsadga muvofiqdir.

3. Milliylikni ifodalovchi leksik birliklarni ta’lim jarayoniga keng joriy etish, xususan, ona tili va adabiyot darslarida ulardan samarali foydalanish orqali yosh avlodda milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish lozim.

4. Zamonaviy til jarayonlari, ommaviy axborot vositalari va internet diskursida ushbu birliklarning qo‘llanish xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish tavsiya etiladi.

5. Milliy leksik birliklarning tarjima jarayonidagi muammolari hamda ularni boshqa tillarga adekvat ifodalash masalalarini alohida tadqiq qilish muhim ilmiy yo‘nalish sifatida belgilanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. – 464 b.
2. Madayev O., Sobitova T. Xalq og‘zaki poetik ijodi: akademik litseylar uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2010. – 208 b.
3. Mirtojiyev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. — Toshkent: Fan, 2007. – 111 b
4. Rajabov N. Til va jamiyat.-Toshkent: Fan, 1991. – 160 b.
5. Mirzayev T., Turdimov Sh., Jo‘rayev M., Eshonqulov J., Tilavov A. O‘zbek folklori (darslik). – Toshkent, 2020. – 237 b.
6. Murodova M. Folklor va etnografiya. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – 100 b.
7. Go‘ro‘g‘ling tug‘ilishi: o‘zbek xalq dostonlari. Aytuvchi: Rahmatulla shoir Yusuf o‘g‘li; nashrga tayyorlovchi: T. Mirzayev va boshq. – Toshkent: Sharq, 2006. – 448 b.
8. Rustamxon: Aytuvchi: Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li; nashrga tayyorlovchi: Z. Diyor. – Toshkent: O‘zFan, 1942. – 112 b.
9. Alpomish: o‘zbek xalq qahramonlik dostoni. Aytuvchi: Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li; yozib oluvchi: M. Zarifov. – Toshkent: “Sharq”, 1998. – 400 b.
10. Kuntug‘mish: ishqiy-qahramonlik dostoni. Aytuvchi: Ergash Jumanbulbul o‘g‘li; nashrga tayyorlovchi: H. Zarif – Toshkent: “G‘afur G‘ulom”, 1975. – 264 b.